

DISKVALIFIKASIYA DAVRIDAGI CHEKLOVLAR

Diskvalifikasiya davrida sportchi yoki boshqa shaxslarga quyidagilar man etiladi:

- **sport musobaqalarida yoki boshqa tadbirlarda har qanday imkoniyatda ishtirok yetish;**
- **professional liga, xalqaro yoki milliy tashkilotchilar tomonidan tashkil yetilgan sport musobaqalarida qatnashish;**
- **davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan moliyalashtiriladigan sport turlari bo'yicha milliy darajadagi har qanday sport tadbirlarida qatnashish;**

Diskvalifikasiya qilingan sportchilar doping-testdan o'tishlari mumkin.

Diskvalifikasiya davrida doping-test ro'yhatida bo'lgan sportchilar, ro'yhatdan chiqarilganligi to'g'risida xabardor qilinmaguncha

ADAMS tizimida qaerdaligini ko'rsatishlari shart.

O'zMADA diskvalifikasiya vaqtida test-ro'yhatida bo'lmagan sportchilarni test ro'yhatiga kiritishi mumkin.

SPORT FAOLIYATIGA QAYTISH

Sportchi terma jamoa bilan mashg'ulotga qaytishi yoki mashg'ulot uchun klubning boshqa binolaridan foydalanishi mumkin bo'lgan muddat:

**diskvalifikasiya davrining so'nggi ikki oyida
diskvalifikasiya davrining oxirgi choragida**

Sportchi yoki to'rt yildan ortiq diskvalifikasiya qilingan boshqa shaxs, to'rt yildan so'ng mahalliy sport tadbirlarida sportchi sifatida qatnashishi mumkin. Sportchi yoki boshqa shaxsga milliy yoki xalqaro sport tadbirlarida qatnashish huquqini bekor qilinsa ushbu sportchi yoki boshqa shaxs voyaga yetmaganlar bilan biron bir tarzda ishlashga ruxsat berilmaydi.

DISKVALIFIKASIYA DAVRDAGI ISHTIROK YETISH TAQIQINING BUZILISHI

Agar sportchi yoki boshqa shaxs yuqorida ko'rsatilgan diskvalifikasiya shartlarini buzsa, musobaqada ishtirok yetish natijalari bekor qilinadi va birinchi diskvalifikasiya davrining oxirida asl davriga teng ravishda yangi diskvalifikasiya davri qo'shiladi.